



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING GLOBAL
MASALALARI: MUAMMO,
TADQIQOT, NAZARIYA, AMALIYOT**
Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
2025-yil 20-noyabr, Navoiy shahri

**GLOBAL ISSUES OF PRIMARY EDUCATION:
PROBLEM, RESEARCH, THEORY, PRACTICE**
oInternational scientific and practical conference
November 20, 2025, Navoi city

**ГЛОБАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ НАЧАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМА,
ИССЛЕДОВАНИЕ, ТЕОРИЯ, ПРАКТИКА**
Международная научно-практическая
конференция 20 ноября 2025 года, г.Навои



Navoiy-2025

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Горчаков Д. Микрообучение - система образования будущего / Лайфхакер [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://lifehacker.ru/microlearning> (дата обращения: 27.06.2020).
2. Грицык В.А. Принципы и методы компьютерного обучения / SuperInf.ru [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://superinf.ru/view_helpstud.php?id=1668 (дата обращения: 27.06.2020).
3. Коровин А. Уроки в стиле инстаграма: что такое микрообучение / Теории и практики [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://theoryandpractice.ru/posts/17463-uroki-v-stileinstagrama-cto-takoe-mikroobuchenie> (дата обращения: 20.06.2020).
4. Монахов Н.В., Монахова Г.А. Сравнительный анализ программных средств для разработки образовательных продуктов // Дистанционное и виртуальное обучение. – 2015. - № 9 (99). – С. 111–116.
5. Arihainfo. Что такое микрообучение? Полное руководство для начинающих / Aruna. website [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://aruna.website/jeto-interesno/cto-takoe-mikroobuchenie-polnoe-rukov> (дата обращения: 13.08.2020).
6. CORE / Платформа для онлайн-обучения [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://live.coreapp.ai/main> (дата обращения: 12.06.2020).
7. Duolingo / Уроки в игровой форме [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://ru.duolingo.com> (дата обращения: 27.06.2020).

MAQOLLARNI TADQIQ ETISHDA NAZARIY YONDASHUVLAR

Kodirova Saodat Abdiraximovna-

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası f.f.f.d.(PhD), dotsenti

Navoiy davlat universiteti Navoiy shahri, O'zbekiston

Annotatsiya: Bu birliklarning mazmuni, shakli, nutqdagi o'rne, milliy va umuminsoniy xususiyatlarini ochib berish uchun bir qancha nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Har bir yondashuv maqollarning ma'no qatlamlariga turli nuqtai nazardan yondashadi, ularning serqirra mohiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: Tipologik, tematik-kompozitsion, intertekstual, stilistik.

Abstract. A number of theoretical approaches have been developed to reveal the content, form, role in speech, national and universal characteristics of these units. Each approach approaches the layers of meaning of proverbs from different points of view, illuminating their multifaceted essence.

Key words: Typological, thematic-compositional, intertextual, stylistic.

Аннотация. Разработан ряд теоретических подходов, раскрывающих содержание, форму, роль в речи, национальные и общечеловеческие особенности этих единиц. Каждый подход рассматривает смысловые пласты пословиц с разных точек зрения, раскрывая их многогранную сущность.

Ключевые слова: Типологический, тематико-композиционный, интертекстуальный, стилистический.

Maqollarni tadqiq qilishda folkloristik nazariy yondashuvlar. Maqollar xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan va qadimiy janrlaridan biri bo'lib, ularda xalqning hayot tajribasi, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va axloqiy-estetik qarashlari aks etadi. Folklorshunoslik maqollarni mustaqil folklor janri sifatida o'rganadi: uning paydo bo'lishi, shakllanishi, funksiyasi, janrlararo bog'liqligi, ijodiy jarayoni va madaniy vazifalarini tadqiq etadi. Shu bois maqollarni tahlil etishda folklorga xos nazariy yondashuvlar asos bo'lib xizmat qiladi.

Tarixiy-genetik yondashuv. Bu yondashuv maqollarning paydo bo'lishi, tarixi, avlodlar orasidagi uzluksizlik va folklor an'analarning saqlanishini o'rganadi. Maqollar, odatda, tarixiy voqealar, turmush tajribasi va jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan bo'ladi. Misol: "Mehnat bilan yer ko'karar, Duo bilan – el" maqolida mehnatga ishonch, duo bilan bog'liq qadimiy e'tiqodlar aks etgan. Bunday tadqiq yondashuvining ahamiyati shundaki, arxetip

obrazlar paydo bo'lish manbalari ochiladi; maqollarning og'zaki taraqqiyot zanjiri tiklanadi; ularning ilk tarkibiy modellari tavsiflanadi. Bu yondashuv B.Jo'rayevaning monografik ishi⁴³da atroflicha tahlil qilinadi.

Janriy-struktur yondashuv. Folklorshunoslikda maqollar mustaqil janr sifatida tahlil etiladi va ularning janr xususiyatlari: qisqaligi, ma'noning zichligi, poetik strukturasi, og'zaki an'analariga bog'liqligi o'rganiladi. Xususiyatlari: yaqqol ritm va qofiya; antiteza va parallelizmga asoslangan tuzilish; bir necha variantda mavjudligi ochib beriladi. Misol: "Boshing osmonga yetsa ham Yerga qarab yur" – kamtarlik, ehtiyotkorlikni targ'ib qiluvchi janr namunasi.

Funksional yondashuv. Maqollar faqat badiiy ifoda vositasi emas, balki ijtimoiy tartib, axloqiy nazorat va muloqotda ta'sir o'tkazuvchi funksional vosita sifatida qaraladi. Funksional yondashuv maqollarning turli vaziyatlarda qanday vazifa bajarishini tahlil etadi. Bunda maqollarning quyidagi vazifalari: axloqiy tarbiya; tanqid va nasihat; yashirin siyosiy yoki ijtimoiy fikr bildirish; ta'lim va madaniy kodni uzatish tahlil qilinadi. Misol: "Gapni katta gapirma, Nonni katta tishlama" – kamtarlikka da'vat etadi. M.Volfgang funksional yondashuvni shunday ta'riflaydi: "Og'zaki xalq ijodining turli janrlari (ertak, afsona, mif, latifa va topishmoq) orasida maqollar eng qisqa, ammo har doim ham eng sodda shakl emas. Maqollar insonning tajriba va kuzatuvlarini donolik durdonalariga aylantirib, shaxsiy munosabatlar va ijtimoiy hayotga oid tayyor fikrlar shaklida ifoda etish ehtiyojini qondiradi. Har qanday vaziyatga mos maqollar mavjud bo'lib, ular hayotning o'zi kabi qarama-qarshiliklarga to'la. Ma'lum bir vaziyatga to'g'ri tanlangan maqol aynan o'sha holatga juda mos tushadi va samarali formula sifatida xizmat qiladi. Jamiyatda maqollar og'zaki nutqda ham, yozma matnlarda ham insonlarga xizmat qiladi, tayyor og'zaki birliklar sifatida deyarli avtomatik tarzda yodga tushadi"⁴⁴.

An'anaviylik va ijodkorlik munosabati. Folklorda an'ana va yangilik o'zaro bog'liq holda yuz beradi. Maqollar doimiy strukturasi va ramzlari bilan an'anaviy bo'lsa-da, ular har bir avlod, har bir ijodkor tomonidan qayta ishlanadi, mazmun jihatdan boyitiladi, variantlar yaratiladi. Misol: "Baliq boshidan sasiydi" maqolining zamonaviy variantlari matbuotda, siyosiy tanqidda faol qo'llanadi. Maqollarning zamon bilan birga yangilanishi ko'rinadi; maqol ijodida folklor subyektlari roli ochiladi.

Tipologik yondashuv. Bu yondashuv turli xalq maqollaridagi umumiylik va farqlarni o'rganishga qaratilgan. Xususan, tipik obrazlar, universal mavzular, madaniy kodlarning o'xshashligi va individualliklari chuqur tahlil etiladi. Masalan, P.Bakirovning "Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков)" nomli doktorlik dissertatsiyasida qiyosiy paremiologiyaning asosiy tamoyillari, usullari ishlab chiqilgan, maxsus tipdagi paremiologik birlik sifatida maqol maqomini o'rnatgan, boshqa paremiyalar orasida maqolning o'rni aniqlangan, maqollarni qiësiy o'rganish uchun nazariy zaruriyatlar, shuningdek, turli tizimdagi tillarning paremiologik birliklarini kompleks tahlil qilish taklif qilingan, rus, o'zbek va qozoq tillaridagi nominal markazli maqollarning semantikasi tavsiflanadi, uchta tilning nominal-markazli maqollarini tematik guruhlar bo'yicha tasniflash amalga oshirilgan, ko'p tizimli tillarda nominal markazli maqollar semantikasining qiyosiy xarakteristikasi berilgan. M.Temirovning "O'zbek va qirg'iz xalq maqollari tipologiyasi" nomli dissertatsiyasida o'zbek va qirg'iz xalq maqollarining yaratilish tarixi va vujudga kelish omillari, xalq falsafiy va badiiy-estetik qarashlarining shakllanishida ijtimoiy-tarixiy va geografik muhit o'rni, shuningdek, o'zbek va qirg'iz xalq maqollarining struktural, poetik tipologiyasi masalalari yoritilgan, folklordagi eng kichik janr tadqiqi orqali o'zbek va qirg'iz maqollarining genetik mushtarakligi, o'ziga xoslik va farqli xususiyatlari asoslab berilgan. G.Ergashevaning "Ingliz va o'zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi" nomli dissertatsiya ishida ingliz va o'zbek tillarida gender ko'rsatkichli frazeologik birliklar hamda paremiyalarni qiësiy-tipologik,

43 Jo'rayeva B.M. O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: fil.fan.doktori (DSc) diss. – Samarqand, 2019. – 237 b.

44 Wolfgang M. Proverbs: A Handbook. Folk and Fairy Tales: A Handbook. D.L.Ashliman. Westport, Connecticut, London, 2004.

kognitiv va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan⁴⁵. Z.R.Narmuratovning “Ingliz va o‘zbek tillarida “ta’lim”, “ilm” konseptlariga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi” nomli dissertasiyasida ingliz va o‘zbek tillaridagi ta’lim, ilm konseptli paremiologik birliklarni chog‘ishtirib o‘rganish orqali ularning lisoniy-madaniy jihatdan o‘xshash va umumiy tomonlari tadqiq etilgan⁴⁶. Z.Yunusova fransuz, ingliz, rus tillari misolida maqollardagi lisoniy ziddiyatni tahlil qilsa⁴⁷, O.Igbolov ingliz va tojik tillari maqollari leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etgan⁴⁸. Da Zhenxin o‘zbekcha va xitoycha maqollarning lingvistik tadqiq ustida ish olib borgan⁴⁹.

Xulosa. Demak, folkloristik yondashuv maqollarni faqat til birligi sifatida emas, balki madaniy-ijtimoiy institut, etnografik hujjat, axloqiy kodeks, estetik fenomen sifatida o‘rganish imkonini beradi. Mazkur yondashuv maqollarni tarix, ijtimoiy kontekst va janr xususiyatlari doirasida tahlil qilishga imkon beradi. Bugungi kunda folklorshunoslikda integratsiyalashgan yondashuvlar, ya’ni folklor + lingvistika + madaniyatshunoslik uyg‘unlashgan holda tadbiq etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayeva B.M. O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: fil.fan.doktori (DSc) diss. – Samarqand, 2019. – 237 b.

2. Wolfgang M. Proverbs: A Handbook. Folk and Fairy Tales: A Handbook. D.L.Ashliman. Westport, Connecticut, London, 2004.

3. Темирова М. Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дис. – Тошкент, 2018. – 166 б.

4. 1Эргашева Г. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол. фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2011. – 164 б.

5. Юсупова З.А. Языковые аспекты реализации противопоставления в паремии (на материале французских, английских и русских пословиц): Дис... канд. филол. наук. – Уфа: БГУ, 2005. – 146 с.

6. Игболов О.Ш. Лексико-семантический анализ особенностей пословиц и поговорок в таджикском и английском языках (на материале “Маснави маънави” Джалолуддина Руми): Дис... канд. филол. наук. – Душанбе, 2017. – 166 с.

7. Da Zhenxin. O‘zbekcha va xitoycha maqollarning lingvistik tadqiqi: filol. fan. fals. dokt. (PhD) disser. avtoref. – Toshkent, 2023. – 50 b.

O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MEDIATA’LIMNING ROLI

Suyarqulova Shukrona Behzodovna

Navoiy davlat universiteti,

Pedagogika ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi,

+998996524506, E-mail: shukronabehzodovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mediata’limning o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyati yoritiladi. Media axborotini anglash va baholash orqali o‘quvchilarning fikrlash madaniyati shakllanishi asoslab ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: mediata’lim, tanqidiy fikrlash, axborot tahlili, o‘quvchi-yoshlar, axborotni baholash.

45 Темирова М. Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дис. – Тошкент, 2018. – 166 б.

46 Эргашева Г. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол. фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2011. – 164 б.

47 Юсупова З.А. Языковые аспекты реализации противопоставления в паремии (на материале французских, английских и русских пословиц): Дис... канд. филол. наук. – Уфа: БГУ, 2005. – 146 с.

48 Игболов О.Ш. Лексико-семантический анализ особенностей пословиц и поговорок в таджикском и английском языках (на материале “Маснави маънави” Джалолуддина Руми): Дис... канд. филол. наук. – Душанбе, 2017. – 166 с.

49 Da Zhenxin. O‘zbekcha va xitoycha maqollarning lingvistik tadqiqi: filol. fan. fals. dokt. (PhD) disser. avtoref. – Toshkent, 2023. – 50 b.

“BOSHQARUV FAOLIYATIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI” Karimov Shuhrat Safojevich- Buxuro Xalqaro Universiteti Psixologiya yo`nalishi 1-kurs magistri.....	318
THE RELATIONSHIP BETWEEN CONSCIOUSNESS AND THE SUBCONSCIOUS IN THE ANALYSIS OF CREATIVE POETIC STYLE Kobulova Nodira Bahodirovna- Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).....	320
INJINIRING (MUHANDISLIK) YO'NALISHI TALABALARI UCHUN INGLIZ TILI KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI Yalg'osheva Mohichehra Olimovna- Chirchiq davlat pedagogika universiteti Lingvistika va ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasida tayanch doktoranti.....	323
TIL O'RGATISHNING BOSHLANG'ICH BOSQICHIDAGI MUAMMOLAR: NAZARIYA VA AMALIY TAHLIL Aliqulova Dildora Iskandar qizi- G'ulomova Ozoda Ibodullo qizi- Navoiy davlat universiteti “Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim” fakulteti 2-kurs magistrantlari.....	325
MATEMATIKA DARSLARIDA O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI Davronova Sabina – Navoiy innovatsiyalar universiteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 3-bosqich talabasi Abduraxmanov G'ulom-Navoiy innovatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi.....	327
ZAMONAVIY TA'LIM VA GLOBAL INTEGRATSIYA Saitmurotova Moxichexra Rustamovna- JAPAN LANGUAGE SCHOOL Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi.....	329
ЗНАЧЕНИЕ ПЕСНИ КАК ИСТОЧНИКА ИНФОРМАЦИИ И СРЕДСТВА ФОРМИРОВАНИЯ УСТНОЙ РЕЧИ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ГЛОБАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ Юсуфзода Юнус Шабнам- УрГПИ заведующий кафедрой методики начального образования, доцент Абдуллаева Мохира Бекмуратовна- УрГПИ магистрант 1-го курса.....	331
MIKROTA'LIM – TA'LIMNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASINI AMALGA OSHIRISHNING SAMARALI VOSITASI. p.f.f.d.(PhD), dots.Abdullayeva Nilufar Maxamadjanovna.....	333
MAQOLLARNI TADQIQ ETISHDA NAZARIY YONDASHUVLAR Kodirova Saodat Abdiraximovna-Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida f.f.f.d.(PhD), dotsenti Navoiy davlat universiteti Navoiy shahri, O'zbekiston.....	339
O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MEDIATA'LIMNING ROLI Suyarqulova Shukrona Behzodovna- Navoiy davlat universiteti, Pedagogika ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi	341